


Toshkent viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020-yil yanvar-noyabr)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2020-yilning yanvar-noyabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 58,2 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019-yilning mos davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 103,9 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (86,7 %) ni tashkil etdi.



B – Tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C** – Ishlab chiqaradigan sanoat
D – Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, **E** – Suv bilan ta'minlash;
kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI* % da




Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo'lib, tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida – 4,3 % ga pasayishi kuzatildi.

Shuningdek, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida – 5.3 % ga o'sish kuzatildi, hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda –4,3 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda – 11,2 % ga pasayishi kuzatildi.

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi - ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


**Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining
jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, % da**



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2020-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2244,7 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,9 % ini tashkil etdi.

**Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalarini
tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**


Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan, % da



**Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalarini
tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

| Sanoat mahsulotlari | 2019-yil yanvar-noyabr | 2020-yil yanvar-noyabr | Farqi +/- |
|----------------------------|---------------------------|---------------------------|--------------|
| Koʻmir, ming t. | 3290,3 | 3468,8 | 178,5 |
| Tabiiy gaz, mln. kub.m. | 243,3 | 282,2 | 38,9 |
| Chaqiq tosh, ming t. | 416,9 | 327,1 | -89,8 |
| Shagʻal, ming t. | 118,1 | 38,6 | -79,5 |
| Kaolin, ming t. | 296,4 | 351,8 | 55,4 |


Ishlab chiqaradigan sanoat




2020-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 50484,4 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 86,7 % ini tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,7 % ni (2019-yilning yanvar-noyabr oylarida - 0,6 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 11,4 % (11,7 %), o'rta-quyi texnologiyali - 51,5 % (51,5 %) va quyi texnologiyali - 22,1 % (22,1 %) ni tashkil etdi.


Yuqori texnologiyali




O'rta-yuqori texnologiyali



O'rta-quyi texnologiyali



quyi texnologiyali




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avto transport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 8,8 % (2019-yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 135,1 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 43,3 % (2019-yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 101,5 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 7,7 % (2019-yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 109,4 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 12,5 % (2019-yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 110,2 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 7,2 % (2019-yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 111,0 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

2020- yilning yanvar- noyabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 210,4 ming dona avtomobil dvigitellari (2019- yilning yanvar- noyabr oylariga nisbatan 12,9 % ga o'sgan), 310,2ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (5,7 %), 144,8 mln. litr pivo mahsulotlari (17,8 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da






Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalar tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2019-yil yanvar-noyabr | 2020-yil yanvar-noyabr | Farqi +/- |
|--|---------------------------|---------------------------|--------------|
| Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t. | 293,4 | 310,2 | 16,8 |
| Paxta tolasi, ming t. | 14,6 | 40,3 | 25,7 |
| O'simlik yog'ı (tozalangan), ming t. | 5,7 | 5,7 | 0 |
| Portlandsement, ming t. | 4671,3 | 4566,5 | -104,8 |
| Kultivatorlar, dona | 1808,0 | 573,0 | -1235 |
| Avtomobil dvigiteLLari, ming dona. | 186,4 | 210,4 | 24 |


Texnologik jihozlarni kapital qayta tiklash ishlari, kimyo korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish hajmini oshirish imkonini berib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan ammoniy sulfat (2019-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 114,8 %), ammoniy nitrat (102,6 %) hamda etil spirti (143,4 %) mahsulotlarida o'sish ko'rsatkichlari qayd etildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5332,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (9,2 % ini) tashkil etdi.


2020-yilning yanvar-noyabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 95,7 % ni tashkil etdi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalaridan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2019-yil yanvar-noyabr | 2020-yil yanvar-noyabr | Farqi +/- |
|-------------------------------|------------------------|------------------------|-----------|
| Elektroenergiya, mln.kVt/s | 16570,0 | 15400,8 | -1169,2 |
| Issqlik energiyasi, ming gkal | 3086,2 | 3449,5 | 363,3 |

| Sanoat mahsulotlari | 2019-yil yanvar-noyabr | 2020-yil yanvar-noyabr | Farqi +/- |
|---|---------------------------|---------------------------|--------------|
| Ko'mirni yer ostida gazga aylantirish natijasida hosil bo'lgan gaz, <i>ming kub. m.</i> | 243288,0 | 282201,0 | 38913,0 |

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 167,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ini) tashkil etdi.

| Sanoat mahsulotlari | 2019-yil yanvar- noyabr | 2020-yil yanvar- noyabr | Farqi +/- |
|---|-------------------------------|-------------------------------|--------------|
| Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, <i>mln.so'm</i> | 36001,7 | 34010,5 | -1991,2 |
| Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlar, <i>mln.so'm</i> | 79149,1 | 83547,8 | 4398,7 |

O'tgan yilning mos davriga nisbatan Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlar, – 5,6 % ga o'sishi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 11976,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 9,6 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 20,6 % ni tashkil etdi.























Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 10,9 % (2019-yil yanvar-noyabr oylarida 11,7 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Zangiota tumaniga to'g'ri kelib, 19,1 % ni, shuningdek, Ohangaron shahri 10,4 % ni, Qibray tumani 9,7 % ni, Angren shahri 9,0 % ni hamda Chirchiq shahri 7,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (109,6 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Bekobod (120,0 %), Ohangaron (210,3 %), Angren (146,9 %) shaharlarida hamda Ohangaron tumanida (130,5 %) qayd etildi.

Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi,
tarkibi va o'sish sur'ati, 2020-yilning yanvar-noyabr oylarida













| | | | | | | | |
|---|------------------|--------------------|---------------------|---|------------------|--------------------|---------------------|
|  | <i>Mrd. so'm</i> | <i>Ulushi % da</i> | <i>O'sishi % da</i> |  | <i>Mrd. so'm</i> | <i>Ulushi % da</i> | <i>O'sishi % da</i> |
| | 151,4 | 1,3 | 109,3 | | 127,0 | 1,1 | 97,3 |
| Nurafshon | | | | Bo'ka | | | |
|  | <i>Mrd. so'm</i> | <i>Ulushi % da</i> | <i>O'sishi % da</i> |  | <i>Mrd. so'm</i> | <i>Ulushi % da</i> | <i>O'sishi % da</i> |
| | 213,2 | 1,8 | 78,9 | | 2286,9 | 19,1 | 103,4 |
| Olmaliq | | | | Zangiota | | | |
|  | <i>Mrd. so'm</i> | <i>Ulushi % da</i> | <i>O'sishi % da</i> |  | <i>Mrd. so'm</i> | <i>Ulushi % da</i> | <i>O'sishi % da</i> |
| | 1083,1 | 9,0 | 146,9 | | 579,8 | 4,8 | 100,8 |
| Angren | | | | Yuqorichirchiq | | | |
|  | <i>Mrd. so'm</i> | <i>Ulushi % da</i> | <i>O'sishi % da</i> |  | <i>Mrd. so'm</i> | <i>Ulushi % da</i> | <i>O'sishi % da</i> |
| | 180,2 | 1,5 | 120,0 | | 151,5 | 1,3 | 82,7 |
| Bekobod | | | | Quyichirchiq | | | |
|  | <i>Mrd. so'm</i> | <i>Ulushi % da</i> | <i>O'sishi % da</i> |  | <i>Mrd. so'm</i> | <i>Ulushi % da</i> | <i>O'sishi % da</i> |
| | 1247,6 | 10,4 | 210,3 | | 1157,3 | 9,7 | 102,2 |
| Ohangaron | | | | Qibray | | | |
|  | <i>Mrd. so'm</i> | <i>Ulushi % da</i> | <i>O'sishi % da</i> |  | <i>Mrd. so'm</i> | <i>Ulushi % da</i> | <i>O'sishi % da</i> |
| | 912,6 | 7,6 | 104,9 | | 221,3 | 1,8 | 96,7 |
| Chirchiq | | | | Parkent | | | |
|  | <i>Mrd. so'm</i> | <i>Ulushi % da</i> | <i>O'sishi % da</i> |  | <i>Mrd. so'm</i> | <i>Ulushi % da</i> | <i>O'sishi % da</i> |
| | 315,9 | 2,6 | 77,6 | | 235,7 | 2,0 | 91,4 |
| Yangiyo'l | | | | Piskent | | | |
|  | <i>Mrd. so'm</i> | <i>Ulushi % da</i> | <i>O'sishi % da</i> |  | <i>Mrd. so'm</i> | <i>Ulushi % da</i> | <i>O'sishi % da</i> |
| | 441,5 | 3,7 | 108,5 | | 330,4 | 2,8 | 104,3 |
| Oqqo'rg'on | | | | O'rtachirchiq | | | |
|  | <i>Mrd. so'm</i> | <i>Ulushi % da</i> | <i>O'sishi % da</i> |  | <i>Mrd. so'm</i> | <i>Ulushi % da</i> | <i>O'sishi % da</i> |
| | 193,9 | 1,6 | 130,5 | | 322,8 | 2,7 | 112,5 |
| Ohangaron | | | | Chinoz | | | |
|  | <i>Mrd. so'm</i> | <i>Ulushi % da</i> | <i>O'sishi % da</i> |  | <i>Mrd. so'm</i> | <i>Ulushi % da</i> | <i>O'sishi % da</i> |
| | 124,4 | 1,0 | 97,3 | | 302,3 | 2,5 | 73,9 |
| Bekobod | | | | Yangiyo'l | | | |


|  | Mrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |  | Mrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|-----------|-------------|--------------|---|-----------|-------------|--------------|
| | 467,0 | 3,9 | 101,6 | | 930,6 | 7,8 | 105,6 |
| Bo'stonliq | | | | Toshkent | | | |

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Ohangaron shahriga to'g'ri kelib, 12,2 % ni, shuningdek, Chirchiq shahrida 11,4 % ni, Zangiota 13,5 % ni, Toshkent 9,7 % ni hamda Qibray tumanlarida 6,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Ohangaron tumanida (132,5 %), Ohangaron (240,1 %), Bekobod (127,9 %) hamda Angren (155,3 %) shaharlarida qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
2020- yilning yanvar- noyabr oylarida**





| | | | | | | | |
|---|-----------|-------------|--------------|---|-----------|-------------|--------------|
|  | Mrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |  | Mrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
| | 103,7 | 1,8 | 114,2 | | 70,0 | 1,2 | 100,0 |
| Nurafshon. | | | | Bo'ka | | | |
|  | Mrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |  | Mrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
| | 152,1 | 2,7 | 82,4 | | 757,3 | 13,5 | 87,5 |
| Olmaliq | | | | Zangiota | | | |
|  | Mrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |  | Mrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
| | 509,5 | 9,1 | 155,3 | | 215,7 | 3,8 | 92,3 |
| Angren | | | | Yuqorichirchiq | | | |
|  | Mrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |  | Mrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
| | 131,6 | 2,3 | 127,9 | | 85,3 | 1,5 | 80,8 |
| Bekobod | | | | Quyichirchiq | | | |
|  | Mrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |  | Mrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
| | 683,2 | 12,2 | 240,1 | | 354,6 | 6,3 | 91,4 |
| Ohangaron | | | | Qibray | | | |
|  | Mrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |  | Mrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
| | 639,8 | 11,4 | 98,7 | | 108,9 | 1,9 | 113,3 |
| Chirchiq | | | | Parkent | | | |



















|  | <i>Mlrd. so'm</i> | <i>Ulushi % da</i> | <i>O'sishi % da</i> |  | <i>Mlrd. so'm</i> | <i>Ulushi % da</i> | <i>O'sishi % da</i> |
|---|-------------------|--------------------|---------------------|---|-------------------|--------------------|---------------------|
| | 194,3 | 3,5 | 84,4 | | 61,0 | 1,1 | 95,6 |
| Yangiyo'l | | | | Piskent | | | |
|  | 159,4 | 2,8 | 112,7 |  | 178,7 | 3,2 | 95,7 |
| Oqqo'rg'on | | | | O'rtachirchiq | | | |
|  | 113,5 | 2,0 | 132,5 |  | 179,2 | 3,2 | 116,2 |
| Ohangaron | | | | Chinoz | | | |
|  | 63,7 | 1,1 | 96,5 |  | 172,4 | 3,1 | 71,4 |
| Bekobod | | | | Yangiyo'l | | | |
|  | 130,6 | 2,3 | 85,6 |  | 543,0 | 9,7 | 108,4 |
| Bo'stonliq | | | | Toshkent | | | |

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Zangiota tumaniiga to'g'ri kelib, 24,0 % ni, shuningdek, Qibray tumani 12,6 % ni, Ohangaron shahri esa 8,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Ohangaron (182,9 %), Bekobod (102,7 %), Angren shaharlarida (140,2 %) qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
2020-yilning yanvar-noyabr oylarida**

|  | <i>Mlrd. so'm</i> | <i>Ulushi % da</i> | <i>O'sishi % da</i> |  | <i>Mlrd. so'm</i> | <i>Ulushi % da</i> | <i>O'sishi % da</i> |
|---|-------------------|--------------------|---------------------|---|-------------------|--------------------|---------------------|
| | 47,7 | 0,7 | 100,1 | | 57,0 | 0,9 | 94,1 |
| Nurafshon | | | | Bo'ka | | | |
|  | 61,1 | 1,0 | 71,2 |  | 1529,6 | 24,0 | 113,7 |
| Olmaliq | | | | Zangiota | | | |


| | | | | | | | |
|---|----------------------------|---------------------------|------------------------------|---|----------------------------|----------------------------|------------------------------|
|  | <i>Mlrd. so'm</i> 573,6 | <i>Ulushi % da</i> 9,0 | <i>O'sishi % da</i> 140,2 |  | <i>Mlrd. so'm</i> 364,2 | <i>Ulushi % da</i> 5,7 | <i>O'sishi % da</i> 106,6 |
| Angren | | | | Yuqorichirchiq | | | |
|  | <i>Mlrd. so'm</i> 48,6 | <i>Ulushi % da</i> 0,8 | <i>O'sishi % da</i> 102,7 |  | <i>Mlrd. so'm</i> 66,2 | <i>Ulushi % da</i> 1,0 | <i>O'sishi % da</i> 85,4 |
| Bekobod | | | | Quyichirchiq | | | |
|  | <i>Mlrd. so'm</i> 564,4 | <i>Ulushi % da</i> 8,9 | <i>O'sishi % da</i> 182,9 |  | <i>Mlrd. so'm</i> 802,7 | <i>Ulushi % da</i> 12,6 | <i>O'sishi % da</i> 107,9 |
| Ohangaron | | | | Qibray | | | |
|  | <i>Mlrd. so'm</i> 272,8 | <i>Ulushi % da</i> 4,3 | <i>O'sishi % da</i> 123,0 |  | <i>Mlrd. so'm</i> 112,4 | <i>Ulushi % da</i> 1,8 | <i>O'sishi % da</i> 84,6 |
| Chirchiq | | | | Parkent | | | |
|  | <i>Mlrd. so'm</i> 121,6 | <i>Ulushi % da</i> 1,9 | <i>O'sishi % da</i> 68,7 |  | <i>Mlrd. so'm</i> 174,7 | <i>Ulushi % da</i> 2,7 | <i>O'sishi % da</i> 90,0 |
| Yangiyo'l | | | | Piskent | | | |
|  | <i>Mlrd. so'm</i> 282,1 | <i>Ulushi % da</i> 4,4 | <i>O'sishi % da</i> 106,3 |  | <i>Mlrd. so'm</i> 151,7 | <i>Ulushi % da</i> 2,4 | <i>O'sishi % da</i> 116,6 |
| Oqqo'rg'on | | | | O'rtachirchiq | | | |
|  | <i>Mlrd. so'm</i> 80,4 | <i>Ulushi % da</i> 1,3 | <i>O'sishi % da</i> 127,7 |  | <i>Mlrd. so'm</i> 143,6 | <i>Ulushi % da</i> 2,3 | <i>O'sishi % da</i> 108,1 |
| Ohangaron | | | | Chinoz | | | |
|  | <i>Mlrd. so'm</i> 60,7 | <i>Ulushi % da</i> 1,0 | <i>O'sishi % da</i> 98,1 |  | <i>Mlrd. so'm</i> 129,8 | <i>Ulushi % da</i> 2,0 | <i>O'sishi % da</i> 77,5 |
| Bekobod | | | | Yangiyo'l | | | |
|  | <i>Mlrd. so'm</i> 336,4 | <i>Ulushi % da</i> 5,3 | <i>O'sishi % da</i> 109,5 |  | <i>Mlrd. so'm</i> 387,7 | <i>Ulushi % da</i> 6,1 | <i>O'sishi % da</i> 101,9 |
| Bo'stonliq | | | | Toshkent | | | |



**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar
tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish
2020-yilning yanvar-noyabr oylarida**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 13217,5 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

2020 yil yanvar-noyabr

2019 yil yanvar-noyabr



 **Boshqa korxonalar**




 **Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar**


Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 22,7 % ni tashkil etdi.


**Toshkent viloyati hududlari kesimida
sanoat ishlab chiqarish hajmlari
2020-yilning yanvar-noyabr oylarida**


|  | Toshkent viloyati | | |  | Bo'ka | | |
|---|-------------------|-------------|--------------|---|-----------|-------------|--------------|
| | Mrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da | | Mrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
| | 58 229,5 | 100,0 | 103,9 | | | | |
| | 959,9 | 1,6 | 96,4 | 195,9 | 0,3 | 103,7 | |
| | Nurafshon | | | Bo'ka | | | |


|  | Milrd. sum | Ulushi % da | O'sish sur'ati |
|---|------------|-------------|----------------|
| | 22 073,7 | 37,9 | 104,1 |
| Olmalik | | | |


|  | Milrd. sum | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|------------|-------------|--------------|
| | 5 090,9 | 8,7 | 107,6 |
| Zangiota | | | |


|  | Milrd. sum | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|------------|-------------|--------------|
| | 4 342,5 | 7,5 | 101,9 |
| Angren | | | |


|  | Milrd. sum | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|------------|-------------|--------------|
| | 3 601,0 | 6,2 | 105,2 |
| Qibray | | | |


|  | Milrd. sum | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|------------|-------------|--------------|
| | 3 272,9 | 5,6 | 120,1 |
| Ohangaron | | | |


|  | Milrd. sum | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|------------|-------------|--------------|
| | 436,3 | 0,7 | 145,9 |
| Quyichirchiq | | | |


|  | Milrd. sum | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|------------|-------------|--------------|
| | 5 749,5 | 9,9 | 111,0 |
| Bekobod | | | |


|  | Milrd. sum | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|------------|-------------|--------------|
| | 263,8 | 0,5 | 95,3 |
| Parkent | | | |


|  | Milrd. sum | Ulushi % da | O'sishi % da |
|--|------------|-------------|--------------|
| | 4 261,2 | 7,3 | 111,0 |
| Chirchiq | | | |


|  | Milrd. sum | Ulushi % da | O'sishi % da |
|--|------------|-------------|--------------|
| | 291,0 | 0,5 | 100,2 |
| Piskent | | | |


|  | Milrd. sum | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|------------|-------------|--------------|
| | 549,8 | 0,9 | 96,5 |
| Yangiyo'l | | | |


|  | Milrd. sum | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|------------|-------------|--------------|
| | 599,1 | 1,0 | 115,1 |
| O'rtachirchiq | | | |


|  | Milrd. sum | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|------------|-------------|--------------|
| | 598,4 | 1,0 | 117,1 |
| Oqqo'rg'on | | | |

|  | Milrd. sum | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|------------|-------------|--------------|
| | 510,1 | 0,9 | 89,5 |
| Chinoz | | | |


|  | Milrd. sum | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|------------|-------------|--------------|
| | 367,5 | 0,6 | 105,1 |
| Ohangaron | | | |

|  | Milrd. sum | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|------------|-------------|--------------|
| | 1 292,9 | 2,2 | 113,7 |
| Yuqorichirchiq | | | |

|  | Milrd. sum | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|------------|-------------|--------------|
| | 228,1 | 0,4 | 104,3 |
| Bekobod | | | |

|  | Milrd. sum | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|------------|-------------|--------------|
| | 1 310,4 | 2,3 | 107,0 |
| Toshkent | | | |

|  | Milrd. sum | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|------------|-------------|--------------|
| | 1 350,3 | 2,3 | 90,7 |
| Bo'stonliq | | | |


|  | Milrd. sum | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|------------|-------------|--------------|
| | 884,2 | 1,5 | 95,0 |
| Yangiyo'l | | | |

**Toshkent viloyati hududlari kesimida ishlab
chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari
ishlab chiqarishning o'sish sur'ati, % da**

Viloyat sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining kamayishini, Bo'stonliq (2019-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 90,7 %), Parkent 95,3 %), Chinoz (89,5 %) tumanlarida hamda Yangiyo'l shahri (95,7 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada pasayganligi bilan izohlashimiz mumkin.

**Sanoat ishlab chiqarish
fizik hajmi indeksi, % da**

**Iste'mol mahsulotlari
ishlab chiqarishda o'sish
sur'ati, % da**




Shuningdek, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish Quyichirchiq (2019-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 145,0 %), Oqqo'rg'on (117,1 %), O'rtachirchiq (115,1 %) va Zangiota (107,6 %) tumanlarida hamda Ohangaron shahrida (120,1 %) sezilarli darajada oshdi.

Toshkent viloyatida jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Olmaliq (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 37,9 %), Bekobod (9,9 %), Chirchiq (7,3 %), Angren (7,5 %) va Ohangaron (5,6 %) shaharlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.












Eng past ko'rsatkich esa Bo'ka (0,3 %) hamda Bekobod (0,4 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.















Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Olmaliq (167737,1 ming so‘m), Ohangaron (86253,6 ming so‘m) va Bekobod (59819,8 ming so‘m) shaharlarida hamda Zangiota tumanida (25706,6 ming so‘m) o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (19727,1 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Viloyat bo‘yicha aholi jon boshiga iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 4057,3 ming so‘m bo‘lgani holda, Ohangaron shahrida – 32879,5 ming so‘mni, Zangiota tumanida – 11548,0 ming so‘mni, Qibray tumanida – 5757,2 ming so‘mni, Chirchiq shahrida 5786,3 ming so‘mni tashkil etdi.

**Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari
va iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarish
2020-yilning yanvar-noyabr oylarida, ming so‘m**


|  | Sanoat mahsulotlari | | Iste‘mol mahsulotlari | | |
|---|----------------------------|------------------------------|---|----------------------------|------------------------------|
| | 19 727,1 | | 4057,3 | | |
| Toshkent viloyati | | | | | |
|  | Sanoat mahsulotlari | Iste‘mol mahsulotlari |  | Sanoat mahsulotlari | Iste‘mol mahsulotlari |
| | 19 663,6 | 3101,1 | | 1 555,3 | 1008,3 |
| | Nurafshon | | | Bo‘ka | |
|  | Sanoat mahsulotlari | Iste‘mol mahsulotlari |  | Sanoat mahsulotlari | Iste‘mol mahsulotlari |
| | 167 737,1 | 1619,8 | | 25 706,6 | 11548,0 |
| | Olmaliq | | | Zangiota | |
|  | Sanoat mahsulotlari | Iste‘mol mahsulotlari |  | Sanoat mahsulotlari | Iste‘mol mahsulotlari |
| | 22 970,2 | 5729,1 | | 17 913,7 | 5757,2 |
| | Angren | | | Qibray | |
|  | Sanoat mahsulotlari | Iste‘mol mahsulotlari |  | Sanoat mahsulotlari | Iste‘mol mahsulotlari |
| | 86 253,6 | 32879,5 | | 4 032,5 | 1400,0 |
| | Ohangaron | | | Quyichirchiq | |
|  | Sanoat mahsulotlari | Iste‘mol mahsulotlari |  | Sanoat mahsulotlari | Iste‘mol mahsulotlari |
| | 59 819,8 | 1874,4 | | 1 697,1 | 1424,0 |
| | Bekobod | | | Parkent | |

| | | | | | |
|---|--|--|---|---------------------------------------|--|
|  | Sanoat mahsulotlari 27 019,0 | Iste'mol mahsulotlari 5786,3 |  | Sanoat mahsulotlari 2 879,5 | Iste'mol mahsulotlari 2332,3 |
| Chirchiq | | Piskent | | | |
|  | Sanoat mahsulotlari 9 065,6 | Iste'mol mahsulotlari 5208,1 |  | Sanoat mahsulotlari 3 993,8 | Iste'mol mahsulotlari 2202,3 |
| Yangiyo'l | | O'rtachirchiq | | | |
|  | Sanoat mahsulotlari 5 686,4 | Iste'mol mahsulotlari 4194,8 |  | Sanoat mahsulotlari 3 803,4 | Iste'mol mahsulotlari 2406,9 |
| Oqqo'rg'on | | Chinoz | | | |
|  | Sanoat mahsulotlari 3 829,2 | Iste'mol mahsulotlari 2020,4 |  | Sanoat mahsulotlari 9 515,4 | Iste'mol mahsulotlari 4267,2 |
| Ohangaron | | Yuqorichirchiq | | | |
|  | Sanoat mahsulotlari 1 444,5 | Iste'mol mahsulotlari 788,0 |  | Sanoat mahsulotlari 7 236,1 | Iste'mol mahsulotlari 5139,0 |
| Bekobod | | Toshkent | | | |
|  | Sanoat mahsulotlari 7 971,1 | Iste'mol mahsulotlari 2756,7 |  | Sanoat mahsulotlari 4 199,4 | Iste'mol mahsulotlari 1435,5 |
| Bo'stonliq | | Yangiyo'l | | | |

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

2020-yilning yanvar-noyabr oylarida, % da


Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 11827,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 20,3 % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Bo'ka (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi (94,6 %), Parkent (90,0%), Chinoz (72,9 %), Ohangaron (60,7 %), O'rtachirchiq (59,9 %) tumanlarida kuzatildi.


Hududlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, Olmalik (1,3 %), Bekobod (3,3 %) va Chirchiq (19,1 %) shaharlarida sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari
(2020-yil 1-dekabr holatiga ko'ra)



Bugungi kunda viloyatda 9818 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1302 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 15,1 %) Zangiota tumaniga, 790 tasi (9,1 %) Qibray tumaniga, 729 tasi (8,4 %) Toshkent tumaniga, 447 tasi (5,2 %) Chirchiq shahriga, 431 tasi (5,0 %) Angren shahriga, 519 tasi (6,0 %) Yuqorichirchiq tumaniga to'g'ri kelmoqda.

2020-yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatda 1384 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 107 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 7,7%) Qibray tumanida, 168 tasi (12,1%) Zangiota tumanida, 86 tasi (6,2%) Toshkent tumanida, 75 tasi (5,4 %) Parkent tumanida, 72 tasi (5,2 %) Quyichirchiq tumanida tashkil etildi.



**Sanoat statistikasi
bo'limi**

Tel.: (71) 202-86-66